

О‘ЗБЕК ТЕАТРИДА ФOLKLORIZMNING ZAMONAVIY TALQINI: AKTYOR TAYYORGARLIGIDA NUTQ, PLASTIKA VA MAROSIM ELEMENTLARINING INTEGRATSIYASI

Ixtiyorjon Boltaboev

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya; Maqolada o‘zbek teatrida folklorizmning zamonaviy talqini hamda aktyor tayyorgarligida nutq, plastika va marosim elementlarini uyg‘un qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil etiladi. Folkloriy unsurlar ijro texnikasini boyitishi, aktyor organikligini kuchaytirishi va milliy sahna maktabi rivojiga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: folklorizm, o‘zbek teatri, aktyor tayyorgarligi, nutq texnikasi, plastika, marosim elementlari, vokal-folklor mashqlari, milliy sahna maktabi, psixofizik holat, integratsiya, ijro mahorati.

MODERN INTERPRETATION OF FOLKLORISM IN UZBEK THEATRE: INTEGRATION OF SPEECH, PLASTICITY, AND RITUAL ELEMENTS IN ACTOR TRAINING

Ikhtiyorjon Boltaboev

Lecturer at Kokand State University,
independent researcher at the Uzbek State Institute of Arts and Culture

Abstract: The article analyzes the modern interpretation of folklorism in Uzbek theatre and the theoretical and practical aspects of integrating speech, plasticity, and ritual elements into actor training. It substantiates how folkloric components enrich acting techniques, strengthen the actor's organic performance, and contribute to the development of the national theatre school.

Keywords: folklorism, Uzbek theatre, actor training, speech technique, plasticity, ritual elements, vocal-folklore exercises, national theatre school, psychophysical state, integration, acting mastery.

СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФОЛЬКЛОРИЗМА В УЗБЕКСКОМ ТЕАТРЕ: ИНТЕГРАЦИЯ РЕЧИ, ПЛАСТИКИ И РИТУАЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В ПОДГОТОВКЕ АКТЁРА

Ихтиёржон Болтабоев

Преподаватель Кокандского государственного университета,
независимый исследователь Узбекского государственного института
искусств и культуры

Аннотация: В статье анализируется современная интерпретация фольклоризма в узбекском театре, а также теоретические и практические аспекты интеграции речи, пластики и ритуальных элементов в подготовку актёров. Обосновывается, как фольклорные компоненты обогащают актёрскую технику, усиливают органичность исполнения и способствуют развитию национальной театральной школы.

Ключевые слова: фольклоризм, узбекский театр, подготовка актёра, техника речи, пластика, ритуальные элементы, вокально-фольклорные упражнения, национальная театральная школа, психофизическое состояние, интеграция, мастерство исполнения.

Kirish

Zamonaviy o'zbek teatr san'ati mustaqillikdan keyingi davrda milliy o'zlikni tiklash, badiiy an'analarni qayta kashf etish va sahnaviy ifoda uslublarini yangilash jarayonini boshdan kechirdi. Ayniqsa, folklor — xalqning og'zaki ijodi, marosimiy meros, jismoniy-plastik ifodasi va vokal an'alarining teatrga qayta kirib kelishi milliy teatr estetikasini yangicha mazmun bilan boyitdi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san'atni rivojlantirishga qaratilgan qator farmon va qarorlari, jumladan, "Mamlakatda madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5937-son Farmon (2020-yil 26-may)da milliy merosni asrash,[1] an'anaviy ijrochilikni rivojlantirish va san'at sohasi vakillarining malakasini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgani folklor asosidagi sahna ijodini qo'llab-quvvatlash uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi. Ushbu farmonda teatr san'atida milliylikni mustahkamlash, ijod jarayoniga xalq ijodi namunalari va urf-odatlardan samarali foydalanish zarurligi alohida urg'u bilan ta'kidlanadi. Shunday ekan, folklorizmni teatr amaliyotiga chuqur integratsiya qilish — nafaqat badiiy zarurat, balki davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanayotgan muhim madaniy yo'nalishdir.

O'zbek teatrida folklorizmning shakllanishi, ayniqsa 1991–2021 yillar oralig'ida, teatrning milliy o'zligini qayta anglash harakati bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Bu jarayonda rejissyorlik yondashuvlari, aktyor tayyorgarligi va sahna tilining shakllanishida xalq qo'shiqlari, an'anaviy marosim plastikasining ritmik qonuniyatlari, udum va rituallarning dramatik funksiyalari qayta talqin qilindi. Natijada sahnada xalq og'zaki ijodi motivlari asosida yaratilgan obrazlar,

jismoniy harakat va nutqning milliy ohangdorlikka ega bo'lgan usullari, psixofizik holatni uyg'unlashtiruvchi marosimiy elementlar keng qo'llanila boshladi. Bu esa o'zbek teatrining badiiy tilini nafaqat milliylashtirdi, balki uni yangi estetik bosqichga olib chiqdi.

Mazkur maqolaning maqsadi — o'zbek teatrida folklorizmning zamonaviy talqinini tahlil qilish, xususan, aktyor tayyorgarligi jarayonida nutq, plastika va marosim elementlarining integratsiyasini ilmiy jihatdan asoslab berishdir. Tadqiqot doirasida xalq qo'shiqlari asosidagi vokal tayyorgarlik, marosimiy harakatlar orqali jismoniy plastikaning shakllanishi, xalqona nutq ohangining aktyor nutq texnikasiga ta'siri hamda ushbu elementlarning bir-biri bilan uyg'unlashuv mexanizmlari o'rganiladi. Metod sifatida komparativ tahlil, amaliy sahna jarayonlarini kuzatish, aktyorlik treninglarining strukturaviy tahlili va zamonaviy teatr pedagogikasi yondashuvlaridan foydalanildi. Ushbu yondashuvlar integratsiyalashgan folkloriy unsurlar nafaqat aktyorning psixofizik holatini chiniqtirishi, balki sahnaviy organiklik, tabiiylik va milliy ifoda uslubining shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini beradi.

Asosiy natijalar va tahlillar

Zamonaviy teatr nazariyasida folklorizm sahna ijodining estetik, semantik va psixofizik qatlamlarini boyituvchi muhim manba sifatida qaraladi. Folklor — xalqning ko'p asrlik tajribasi, dunyoqarashi, ritmik ongini mujassamlashtirgan murakkab madaniy tizim bo'lib, uning teatrga ko'chishi aktyor ijrosiga tabiiylik, milliylik, ritmik uyg'unlik va obrazning badiiy aniqligini ta'minlovchi omilga aylanadi. Folkloriy elementlarning teatrga kirib kelishi birgina sahna bezagini emas, balki aktyorlik texnikasi, dramatik struktura, ritm-plastik tizim va vokal ifodaning tubdan yangilanishiga olib keladi. Bu jarayon teatr san'atining milliy identitetni namoyon etishdagi imkoniyatlarini kengaytiradi, ijrochilik uslubi esa xalqona ohang, ritm, harakat va marosimiy tuyg'ular bilan to'yintiriladi.

Folklorning zamonaviy teatrga ta'siri avvalo uning nutq, plastika va marosimiy unsurlar orqali ifodalanishida namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi namunalarida uchraydigan ohangdorlik, o'ziga xos intonatsiya, lad va ritm aktyor nutqiga tabiiylik va milliy ohang bag'ishlaydi. Folklor qo'shiqlaridagi nafas boshqaruvi, ovozning tembr bo'yoqlari, lad tuzilmalari ham aktyorning vokal texnikasini rivojlantiradi. Plastika sohasida esa xalq o'yinlari, marosimlaridagi harakat strukturasi, gavda ritmiga asoslangan ifoda, milliy raqs va udumlarning jismoniy energetikasi aktyor harakati uchun tabiiy asos bo'lib xizmat qiladi. Marosim unsurlari esa ijrochilikda psixofizik holatni uyg'unlashtiradi: ulardagi takroriy ritmlar, ramziy harakatlar, energetik markazlarning faollashuvi aktyorning sahnaviy e'tiborini shakllantiradi hamda ichki holat va tashqi ifoda birligini

mustahkamlaydi. Shu sababli folkloriy unsurlar aktyor tayyorgarligi uchun nafaqat tashqi ifodaviy material, balki chuqur ruhiy tayanch bo'lib qoladi.

Aktyor tayyorgarligi tizimidagi folkloriy komponentlar o'z ichiga uch asosiy yo'nalishni oladi:[2] nutq texnikasi, jismoniy-plastik tayyorgarlik va marosimiy-ritual tuyg'ularni shakllantirish. Nutq texnikasida xalq qo'shiqlarini o'rganish, xalqona intonatsiya va ohangdorlikni egallash, matnning tabiiy tug'ilishi hamda milliy ritmik so'zlashuvni shakllantirish muhim o'rin egallaydi. Plastika bo'yicha tayyorgarlik esa xalq o'yinlari, milliy raqs elementlari, marosimiy harakatlar, jismoniy ritm va energetik muvozanatni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Marosim unsurlarini o'zlashtirish jarayonida esa aktyorda sahnaviy e'tibor, ichki holatning uyg'unligi, ruhiy markazlashuv, obrazga organik kirish va kollektiv energiya bilan ishlash qobiliyatlari rivojlanadi. Bu uch komponentning uyg'unlashuvi aktyorning organik, milliy ruhda tabiiy ijro etishiga yordam beradi, zamonaviy sahna uchun moslashgan, lekin milliy ildizlarga tayanadigan ijro maktabini shakllantiradi.

Zamonaviy o'zbek teatrida aktyor tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida nutq, plastika va marosim elementlarining o'zaro integratsiyasi ijroning psixofizik tabiatini boyituvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Folklor asosidagi nutqiy ohangdorlik, milliy harakatlar ritmoplasi, shuningdek, qadimiy marosim va rituallarning dramatik strukturadagi funksional talqini aktyorning organik holatda sahnaga chiqishiga, uning milliy o'ziga xoslikka tayangan holda zamonaviy estetikani yaratishiga imkon beradi. Mazkur integratsiya aktyor tayyorgarligini faqat texnik emas, balki madaniy-estetik jarayon sifatida ham talqin etish imkonini yaratadi.

Aktyor tayyorgarligida vokal-folklor mashqlari:

Folklor qo'shiqlari va an'anaviy vokal ohanglari aktyorning nutq apparati, nafas tizimi va ichki musiqiy sezgirligini o'stirishda yuqori samaradorlikka ega. O'zbek xalq qo'shiqlariga xos cho'zma ohang, tor diapazonli, lekin ritmik jilolanishga ega kuylash uslubi sahnadagi nutqning tabiiy jarangdorligini kuchaytiradi. Mashg'ulotlarda termalar, yalla ohanglari, baxshilik uslubidagi xirgoyi mashqlari qo'llanilishi aktyorga ovozning tabiiy rezonansini topish, nafasni boshqarish hamda nutqiy matnni musiqiylik bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat aktyor vokalini mustahkamlaydi, balki ijroning hissiy mazmunini ham boyitadi.

Milliy harakat plastikasining sahnaviy qo'llanilishi:

O'zbek xalq raqsi, pantomimik harakatlar va milliy urf-odatlarida saqlanib qolgan plastika shakllari aktyorning tanaviy erkinligi va ritm sezgisini rivojlantiruvchi amaliy asosdir.[3] Milliy harakatlar — qo'lning mayin chizgilar bilan ishlashi, gavdaning egiluvchanligi, qadam tashlash sur'atlaridagi marom —

aktyorga sahnada o'zini erkin, organik va milliy estetika doirasida tutish imkonini beradi. Harakat plastikasining teatr amaliyotiga tatbiq etilishi aktyorning ichki kechinmalarini tashqi harakat orqali mazmunli ifoda etishiga xizmat qiladi. Bu esa Stanislavskiy talqinidagi psixofizik birlik prinsipiga uyg'un holda, aktyor gavdasining ma'noli harakatga aylanishini ta'minlaydi.

Marosim va ritus elementlarining psixofizik funksiyasi:

O'zbek xalqining qadimiy marosimlari — duolar, yo'qlovlar, qadriyatlarni ifodalovchi rituallar, mavsumiy udumlar — o'ziga xos dramatik struktura va psixik energiyaga ega. Ular aktyorning ichki e'tiqodi, emotsional konsentratsiyasi va obrazga kirish jarayonini tabiiylashtiradi. Marosim elementlaridagi takrorlanish, ritmik ohanglar, jamoaviy uyg'unlik aktyorda ichki holatlarning uyg'onishiga, psixofizik energiyaning bir maromga kelishiga yordam beradi. Bunday mashg'ulotlar aktyorni "rol ichidagi holat"ga tayyorlashda, uning sezgirlik va ichki tasavvurini faol holga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Integratsiya asosidagi etyudlar va pedagogik mashg'ulotlar:

Nutq, plastika va marosim unsurlarini bir butun dramatik tizim sifatida talqin etish asosida olib boriladigan etyudlar aktyorning organik ijro malakasini mustahkamlovchi samarali pedagogik vositadir. Masalan:

- folklor qo'shig'i bilan birga bajariladigan plastika mashqi;
- marosimiy ritmlar asosida harakat-nutq uyg'unligi;
- milliy udumlardan olingan vaziyatlar asosida dramatik etyudlar;
- baxshi uslubidagi xirgoyi bilan psixofizik holatga kirish mashqlari.

Bunday integratsion mashg'ulotlar aktyorning nafaqat texnik mahoratini, balki madaniy xotirasini, milliy estetik dunyoqarashini shakllantiradi. Shu tariqa folkloriy elementlar zamonaviy teatr pedagogikasida ijodiy manba sifatida namoyon bo'lib, aktyor tayyorgarligini mazmunan va shaklan boyitadi.

Xulosalar

Nutq, plastika va marosim elementlarining o'zaro integratsiyasi o'zbek teatrida aktyor ijrosining nafaqat texnik, balki ma'naviy-estetik sifatini ham belgilovchi muhim omilga aylandi. Ushbu integratsiya aktyorning sahnadagi psixofizik holatini boyitadi, uning ovozi, gavdasi, tasavvuri va hissiy dunyosining uyg'un harakatda namoyon bo'lishiga sharoit yaratadi. Ayniqsa, folklorga xos ohangdor nutq, milliy harakat plastikasining ritmoplasi va marosimlardagi ruhiy energiya aktyorning ijro jarayonida organiklik, ishonchlilik va ichki haqqoniylikni oshiradi. Natijada aktyor sahnada faqat matn bajaruvchi emas, balki milliy madaniyatning jonli tashuvchisiga aylanadi.

Folkloriy yondashuvning zamonaviy teatr san'ati uchun ahamiyati aynan shu o'ziga xos uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Global teatr jarayonlari fonida milliy teatrning betakrorligini saqlab qolish, o'ziga xos estetik maktab yaratish va

tomoshabinning ruhiy dunyosi bilan mustahkam aloqa o'rnatish folkloriy manbalarga murojaat qilish natijasida yanada samarali kechadi. Folklor unsurlarining sahnaviy talqini — qadriyatlarining tiklanishi, madaniy xotiraning qayta jonlanishi, teatr san'atining o'z ildizlariga qaytishi demakdir. Shu ma'noda, folklorizm nafaqat badiiy uslub, balki zamonaviy teatrnı milliy ruhda rivojlantiruvchi metodologik yo'nalish sifatida qadrlanadi.

Kelgusidagi taklif va istiqbollarga kelsak, birinchi navbatda aktyor tayyorgarligi jarayonida folkloriy mashg'ulotlarning alohida modul sifatida shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir. O'quv dasturlarida vokal-folklor mashqlari, milliy plastika texnikalari, marosimiy etyudlar va udumlar asosidagi dramatik vaziyatlar muntazam qo'llansa, aktyorlarning psixofizik imkoniyatlari yanada chuqurroq ochiladi. Shuningdek, teatr-pedagogik ta'limda folklor ijrochiligi bo'yicha maxsus seminar va laboratoriyalar tashkil etilishi ijodiy tajribaning kengayishiga xizmat qiladi. Bunda zamonaviy rejissura yutuqlarini milliy marosimiy-estetik zamin bilan uyg'unlashtirish orqali yangi ijodiy usullar yaratish imkoniyati tug'iladi.

Umuman olganda, nutq, plastika va marosim elementlarining integratsiyasi o'zbek teatrining kelajakdagi rivojlanish istiqbolida muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv teatr san'atining milliylikini mustahkamlab, yangi sahnaviy shakllar, yangicha aktyorlik texnikasi va zamonaviy tomoshabinni o'ziga jalb qiladigan mazmuniy yangiliklarni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Mamlakatda madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5937-son Farmon. Tashkent: 2020.

[2] Xudoyberdiyev, I. O'zbek teatrida folklorizm va ijrochilik. Tashkent: Fan, 2016, 45–47-b.

[3] Xudoyberdiyev, I. *O'zbek teatrida folklorizm va ijrochilik*. Tashkent: Fan, 2016, 60–64-b.